

Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish uchun
46/N-51 -son shartnoma

Toshkent sh.

2022 y. "18" 01

"Respublika maxsus aloqa bog'lamasi" davlat unitar korxonasi nomidan boshliq Mirnasirov Mirkomil Mirxaydarovich, Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin "Operator" deb ataluvchi, bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi kinematografiya agentligi nomidan Bosh direktor o'rinbosari B. Maxmatqasimov asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin "Abonent" deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. "Operator" O'zbekiston Respublikasi mahalliy telefon aloqa xizmatidan foydalanish qoidalariga Shaharlararo va xalqaro telefon aloqa xizmatlaridan foydalanish qoidalariga va ushbu shartnomaga muvofiq "Abonent"ga telefon aloqa xizmatlarining zarur turlarini taqdim etish, "Abonent" esa bu xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatlarini o'z zimmlariga oladilar.

2. Xizmatlar turlari

2.1. "Operator" "Abonent"ga asosiy va qo'shimcha (*) xizmatlarni taqdim etadi: shu jumladan QQS 15%

Xizmatlar turlarining nomi	Miqdori	Bir oy uchun tarif, so'm
Shahar telefonlari	1	6900
Qo'shimcha (shahar) telefonlari		
Qo'shimcha (hukumat aloqasi)		
Qisqa nomerni terish	1	1040
Hukumat aloqasi telefonlari (HATS)	4	16490
Ichki telefonlar		
Abonent arizasi bo'yicha aniqlash		
500 m gacha uzunlikdagi to'g'ri simlar		
500 m ortiq uzunlikdagi to'g'ri simlar	6	6240
Faksimil apparatidan foydalanish		
Kirish qo'ng'iroqlarini qayta manzillash	1	1940
EATS uchun vaqtbay to'lov		
Yangi qo'ng'iroq kelib tushganligi to'g'risida xabar qilish		
MOQdan foydalanish		
<u>Deep video</u>		114510
JAMI:		

(*)Qo'shimcha xizmatlar "Operator" tomonidan Abonentning arizalari bo'yicha taqdim etiladi va u tomonidan asosiy xizmatlarga haq to'lash bilan birga taqdim etilgan hisobga ko'ra to'lanadi.

2.2. Xizmatlarning turlari va hajmi "Operator"ning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zgarishi mumkin.

3. Tomonlar majburiyatlari

3.1. "Operator":

3.1.1. "Abonent"ning arizasiga ko'ra shahar, hukumat, idoraviy telefon apparatlari va boshqa oxirgi qurilmalarni o'rnatish, joyini o'zgartirish ishlarini amalga oshirish.

3.1.2. Shaharlararo va xalqaro aloqadan foydalanishni ta'minlash.

3.1.3. Amaldagi normativ hujjatlar talablariga javob beradigan kechayu kunduz barqaror va sifatli telefon aloqasini ta'minlash.

3.1.4. O'tgan (hisob-kitob) davri uchun mahalliy, shaharlararo va xalqaro aloqa xizmatlariga haq to'lash uchun (xizmatlar narxini vaqtbay hisobga olganda) "Abonent"ga hisoblarni taqdim etish majburiyatlariga ega.

3.2. "Operator" quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. "Operator" "Abonent" tomonidan ruxsatsiz uning abonent liniyalariga ulangan oxirgi qurilmalar (telefon apparatlari, telematik xizmatlar, ma'lumotlar uzatish qurilmalari, radiotelefonlar, radiouzaytirgichlar va h. b.)ni dalolatnomani rasmiylashtirgan holda uzishni talab qilish.

3.2.2. "Operator" "Abonent" tomonidan Mahalliy telefon aloqa xizmatlaridan foydalanish qoidalariga buzilgan holda ushbu Shartnomaning amal qilishini to'xtatish.

3.3. "Abonent":

3.3.1. Telekommunikatsiya xizmatlariga o'z vaqtida haq to'lash.

3.3.2. Qo'shimcha rozetkalar, ma'lumotlar uzatish uskunalari, faks apparatlarini ruxsatsiz o'rnatish, joyini o'zgartirish, parallel apparatlarni ulash, shuningdek abonent nomerlarini ta'sis qilingan stansiyaga ulashga yo'l qo'ymaslik. Ularni faqat "Operator"ning ruxsati bilan tegishli rasmilashirilgandan va ro'yxatga olingandan keyin ulash.

3.3.3. "Operator"ga telefondan foydalanishda yuz bergan o'zgarishlar (abonentning ko'chib ketganligi, korxon va rekvizitlarining o'zgariganligi va sh.k.) to'g'risida o'z vaqtida xabar qilish.

3.3.4. Yarim yilda kamida bir marta hisob-kitoblarni qiyoslash dalolatnomasini bajarish majburiyatlariga ega.

4. Xizmatlar uchun haq to'lash

4.1. Taqdim etiladigan telekommunikatsiya xizmatlarining umumiy narxi tasdiqlangan 125-1/1-son; 125-1/7-son, 125-1/3-son Preyskurantlariga muvofiq har bir xizmat turi uchun tarifdan kelib chiqib belgilanadi.

4.2. Shartnoma tuzish vaqtida shartnomaning umumiy summasi 343 530,00 (Uch yuz qirg'uch ming besh yuz ottiz) so'mni tashkil qiladi. Oxirgi qurilmadan foydalanish va telekommunikatsiya xizmatlari uchun haq to'lash shartnoma summasining 30 foizi miqdoridagi oldindan to'lovni to'lab naqd bo'lmagan hisob-kitob orqali amalga oshiriladi. Keyingi to'lov joriy o'yni taqdim etilgan hisob-kitoblar, to'lov topshiriqlari va boshqa hisob-kitob hujjatlari asosida 20-sanasigacha amalga oshiriladi.

4.3. Joriy o'yni 30-sanasigacha (30-sana ham kiradi) to'lov kelib tushmaganda, "Bajaruvchi"ning telefon uzib qo'yilishi va "Abonent" yopiq bo'lishi to'g'risida ogohlantiradi. "Abonent"ni ochish 5.2-bandga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Tariflar o'zgargan holda yangi tariflar kuchga kirishidan avval "Abonent" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan bo'lganda ham "Bajaruvchi" taqdim etilayotgan xizmatlar narxini qayta hisob-kitob qiladi.

4.5. "Abonent" aybi bilan telefon ishlamagan vaqt uchun telefondan foydalanganlik to'lovi to'liq miqdorda undiriladi.

4.6. "Abonent" liniya-kabel xo'jaligi va "Abonent"ning telefon apparati ishdan chiqqan hollardan tashqari, texnik to'xtab qolishlar sababli aloqa bilan ta'minlanmagan kunlar uchun haq to'lamaydi.

4.7. Telefon va boshqa oxirgi qurilmalarni o'rnatish, shuningdek to'g'ri simlar va ulovchi liniyalarning taqdim etilganligi uchun to'lov bu xizmatlarga buyurtma rasmilashirilganidan keyin "Abonent" tomonidan to'lanadi.

4.8. Shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlarning rasshifrovkasi "Abonent"ga qo'shimcha to'lov uchun ishonchnoma mavjud bo'lganda taqdim etiladi.

4.9. Agar Abonent to'lanishi kerak bo'lgan summa, so'zlashuvning davomiyligi yoki tegishlilik bilan rozi bo'lmaganda, u hisobni olgandan keyin 45 kun ichida norozi bo'lib shikoyat arizasini berish huquqiga ega. 45 kun o'tgandan keyin da'volar qabul qilinmaydi.

5. Tomonlar javobgarligi

5.1. "Operator" va "Abonent" Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga muvofiq javobgar bo'ladi.

5.2. Abonentni ochish u o'chirilgandan keyin 30 kun ichida bajarilishi mumkin (telefon ishlashini tiklash imkoniyati saqlanadi) qarzdorlikni to'lash va har bir kechiktirilgan kun uchun kechikkan to'lov summasining 40 foizi miqdoridagi, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan penyani to'lash sharti bilan. Telefon o'chirilgandan keyin to'lov kelib tushmaganda "Operator" telefon nomerini olib qo'yish huquqiga ega. "Abonent" tomonidan ro'yxatga olish to'lovi to'lagandan keyin yangi telefon nomerini o'rnatish mumkin bo'ladi.

5.3. Telefondan foydalanish huquqini "Operator"ning tegishli ruxsatisiz boshqa shaxsga yoki tashkilotga berish, shuningdek haq to'lash evaziga telefondan foydalanishni uchinchi shaxslarga berish orqali telefonni ekspluatatsiya qilish taqiqlanadi.

5.4. Tomonlarning mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik choralari O'zR hududida amal qiladigan qonun hujjatlari normalariga muvofiq qo'llaniladi.

6. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkoni boricha tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li orqali hal qilinadi.

6.2. Nizolarni tomonlarning muzokaralari yo'li orqali hal qilish imkoni bo'lmagan holda nizolarni qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan sudgacha tartibga solish protsedurasi amalga oshirilgandan keyin ular ko'rib chiqish uchun Toshkent shahridagi Tumanlararo iqtisodiy sudga yuboriladi.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH QOIDALARI

7.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida Tomonlar amaldagi qonunchilik shu jumladan korruptsiyaga qarshi kurashish talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar.

Bunda ular va ularning hodimlari, filiallari, benefitsiarlari va ushbu Shartnomani bajarishda ishtirok etadigan agentlar biznes sheriklari, vositachilar, pudratchilar pora berish yoki olish, tijorat pora olish sifatidagi harakatlarni (harakatsizligi) amalga oshirmasliklarini ta'minlash, pora berishda vositachilik, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hodimining yoki boshqa shaxslarning pora olishi va ushbu Shartnoma va korruptsiyaga qarshi kurashish va jinoyatchilikdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi qo'llaniladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

7.2. Tomonlar bevosita yoki bilvosita, shahsan yoki uchinchi shahslar orqali takliflar, va'dalar, berish, tovlamachilik, so'rovlar, pul va boshqa qimmatbaho buyumlar, mulk, mulk huquqi va boshqa moddiy yoki moddiy bo'lmagan foydalarni olish va olishga rozilik berish hamda asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish, shu jumladan Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va oshkorligi tamoyillariga mos kelmaydigan

